

Subhonqulixon



Subhonqulixon ibn Nadrmuhammadxon

(1625 yil, Buxoro – 1702 yil 14 -sentabr)

(1680-1702)

Ashtarxoniylardan bo'lgan Buxoro xoni. 1651-80 yillarda Balx hokimi. **Nadrmuhammadxon** Buxoro xoni bo'lgach, o'gli Subhonqulixonni Soli Saroy shahri, so'ngra Balx viloyati hokimi qilib tayinlaydi (1642). Ko'p o'tmay u bu lavozimdan olinib, Kaxmerdga hokim bo'lgan. Subhonqulixonning akasi Abdulazizxon otasini hokimiyatdan chetlashtirib, Buxoro xoni bo'lgach, Subhonqulixon Balxga – otasi huzuriga yo'l olgan. Subhonqulixon Balx viloyatida mustahkam o'rnashib olib, 1651 yilda Balx va Badaxshon hokimligini qo'lga kiritgan. Subhonqulixon Buxorodan mustaqil siyosat yuritgan. 1658 yilda Abdulazizxonning piri Abdulg'afforxo'ja vositachiligida Buxoro va Balx o'rtasida tinchlikka erishilib, Subhonqulixon akasi hokimiyatini rasmiy tan olgan. Muhammad Yusuf munshiyning yozishicha, 1680 yil 2-fevralda keksayib qolgan Abdulazizxon Subhonqulixonga Buxoro xonligi taxtini topshirib, o'zi hajga jo'naydi. Subhonqulixon markaziy hokimiyatni mustahkamlash uchun soliqlar miqdorini oshirib, qo'shinini ko'paytirgan. Anushaxonning vorisi Arang Muhammadxon 1687 yili Buxoroga bosqin qilganida Subhonqulixon bu hujumni qaytarish bilan cheklanmay, 1688 yilda o'ldirilgan xon o'rniga Xiva taxtiga o'z noibi Amir Niyoz eshiko'g'aboshi (Shohniyoz)ni o'tqazgan. Shu tariqa Abdullaxon II davridagidek Xiva xonligi yana Buxoroga qo'shib olinadi va mintaqada yagona o'zbek davlati qaror topgan. Subhonqulixon davrida Buxoro xonligining Sharq davlatlari bilan deplomatik munosabatlari yaxshilangan. Boburiylardan Avrangzeb 1689 yilda Zabardastxon, Usmonli Turk sultoni Ahmad II 1691 yilda Mustafo chovush boshchiligidagi elchilarni Buxoroga jo'natgan. 1671-87 yillarda Subhonqulixon bilan Avrangzeb o'rtasida bir

necha marta o'zaro maktublar almashilgan.

Subhonqulixon tomonidan Balx va Buxoroda ko'plab me'moriy obidalar, jumladan, Balxda madrasa, Buxoroda Do rush-shifo, Registonda katta hovuz ; Arkda Salom xona va jome' masjiti, shuningdek, Aminobodda chorbog' qurilgan. Subhonqulixonning tibbiyotga oid kitoblar jamlangan nodir kutubxonasi bo'lgan. U *"Ihyo at-tibbi Subhoniyy"* (*"Subhoniyy tibbiyoti bo'yicha davolash"*), *"Lubb ul-lavoih ul-qamar fil-ixtiyorot"* (*"Baxtli soatni aniqlashda oy manzillarining mohiyati"*) nomli ilmiy nujumga oid risola yozgan. Subhonqulixon **"Nishoniyy"** taxallusi bilan she'rlar bitib, saroyda o'tkazilgan mushoiralarda o'zi ham she'rlar aytgan. Subhonqulixon Buxoro yaqinidagi Bahouddin majmuasidagi *Daxmai shohonda* (Abdullaxon II qabri yaqinida) dafn etilgan.

2023-11-02 16:51:35